

Oila Jamiyatning Asosiy Bo'g'ini Hamda Oilada Farzandlar Tarbiyasi

Abdullayeva Marhabo Aziz qizi¹

Annotatsiya: Dunyoda ikki muqaddas narsa bor – u ham bo'lsa, Ona va Vatan. Bizga naqadar aziz hamda qadrli bo'lgan ana shu ikkala so'z aslida yagona ma'noni, ya'ni Onani anglatadi. Qalbimiz to'ridan mustahkam va munosib joy egallagan ushbu so'zlarning o'xshashligi tasodifiy hol emas. Dunyoda onadan-da e'zozli va ehtiromga loyiq inson, Vatandan aziz va qimmatli zamin yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bo'lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. SHu jihatdan, oila qo'rg'onining mustahkamligi va unda ma'naviy jihatlarning shakllanishi hamda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin, oila deb atalmish muqaddas makonda farzandlar kamolga yetadi, ulg'ayadi.

Oila – tarbiya tizimidagi shunday bo'g'inki, butun jamiyatning, millatning bugungi va kelajak hayoti uni qanday tashkil etishiga, undagi mavjud ijtimoiy – ma'naviy muhitiga bog'liq. Yoshlarni milliy g'urur ruhida tarbiyalashda oila va mahallaning o'rni alohida ahamiyatga ega. Harqanday insonning asosiy xususiyatlari avvalo, oilada shakllanadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov bu borada shunday degan “- oila qurish degani ikki inson o'rtasidagi shaxsiy munosabat emas, balki, jamiyatning asosini, aytish mumkinki, eng muhim bo'g'inini belgilaydigan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.”

Oila har bir jamiyatning asosiy negizi bo'lib, yoshlarimizda insonparvarlik, mehnat- sevarlik, axloqililik, vatanparvarlik va yuksak tuyg'ular, avvalo oila muhitida singadi, bu jarayonda ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi.

Kalit so'zlar: Oila, ota-ona, farzand, ta'lim, tarbiya, ommaviy madaniyat, ma'naviyat, halollik, poklik, rostgo'ylik, sabr- toqat.

Kirish: Bu yorug' jahonda neki jonzot bo'lsa, barchasi bolasi uchun qayg'uradi. Hatto, og'zida don tashib boqadi, himoyalab voyaga yetkazadi. Butun mavjudot orasida eng ulug' eng mukkaram etib borliqni kerak bo'lsa, butun umri hayotini bag'ishaydi. Menicha bu borada bizning mamlakatimizga o'zbek xalqiga yetadigan kamdan – kam uchraydi. Farzandli bo'lish, o'sha farzandni sog'-salomat voyaga yetkazish, uning baxtu – iqbolini ko'rish, xalqimizning eng ulug' orzusi hisoblanadi. Chunki, har bir oilaning kelajagi shu oilada qanday farzand voyaga yetkazganiga bog'liq. Demak, butun mamlakatning kelajagi tarbiyasi farzandlarga bog'liq. Endi esa tarbiya so'ziga ta'rif beradigan bo'lsam, tarbiya so'zi “robba” fe'lidan olingan bo'lib o'stiradi, ziyoda qiladi, rioyasiga oladi, rahbarlik qiladi, isloh qiladi ma'nolarini bildiradi. Ajdodlarimiz tarbiyani bir necha xil ta'rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta'riflaydi: “Tarbiya bir narsani asta – sekin kamoliga yetkazishdir”. Rog'il Asfixoniy tarbiyani quyidagicha ta'rif qildi “Tarbiya bir insonni bir holdan ikkinchi holga o'tkazib, batamonlik nuqsiga yetkazishdir. Tarbiyaning ma'nolaridan biri insonning diniy, fikriy, ahloqiy quvvatlarini uyg'unlik hamda muvozanat va o'stirishdir”- deb takidlagan edi. Tarbiya haqida ko'plab misollar keltirish mumkin.

¹ Sharof Rashidov nomidagi SaM DU “Ijtimoiy ish” yo'nalishi, 3-bosqich talabasi



Xalqimizning ajoyib iboralari, maqollari, hadislarida ko'plab ma'nolar yashirilgan. Misol uchun **“sut bilan kirgan- jon bilan chiqadi”**, **“qush uyasida ko'rganini qiladi”** va shunga o'xshash bir qator hayotdan olingan iboralari, ibratli hadislar (hayotimizda) turmush tarzimizda keng o'rin egallagan. Endi esa, “sut bilan kirgan-jon bilan chiqar”- degan naqlga oydinlik kiritsak. “Ona sutidek halol”- degan gap bekorga aytilmagan. Bolaning kelajagida qanday inson bo'lib voyaga yetishida ona sutining ahamiyati juda katta. “Qush uyasida ko'rganini qiladi”- degan iboraga oydinlik kiritadigan bo'lsak, farzand qanday oilada, qanday muhitda tug'ilib o'sgan bo'lsa, o'sha yashab kelgan uyidagi munosabati bilan voyaga yetadi. Ma'lumki, oila har bir jamiyatning boshlang'ich hujayrasi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, farovon bo'ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa, halol va haromning farqi qolmasa, o'sha jamiyatning tinchi yo'qoladi, oxir – oqibat chuqur tanazzulga yuz tutadi. Muntazam kitob mutoala qilgan oiladagi farzandlar hech qachon bironing dilini og'ritmaydi, nomaqbul ish qilmaydi. Balki, Vatanga nafi tegadigan komil inson bo'lib ulg'ayadi. Insonda madaniyat, dunyoqarash, tasavvur va e'tiqodga bog'liq bo'lgan ko'nikmalar dastlab oilada shakllanadi. Aksincha bo'lsachi? Haqiqatan ham, oila notinch bo'lsa, farzandlarning dunyoqarashi, kelajakka bo'lgan umidi qolmaydi. O'qishga, halol ishlashga intilmay qoladi. Har xil yomon illatlarga bog'lanib qoladi. Bolaning ongida ma'naviy bo'shliq paydo bo'ladi va bunday vaziyatda o'rnini har qanday yot, buzg'unchi g'oyalar egallashi tabiiy. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, ba'zi hollarda tinch, sog'lom oilada ulg'ayotgan, yaxshi tarbiya ko'rib voyaga yetayotgan farzandlarga ham tashqi omillar ta'sir ko'rsatib ularning ongini zaxarlab, o'z domiga tortib qo'yayotgan vaziyatlarga afsuski guvoh bo'lamiz. Shuning uchun, bugungi kunda jamiyatimizda har bir oila masalasiga katta e'tibor berilmoqda, oilaning mustahkam va baxtiyor bo'lishi uchun imkoni bor bo'lgan barcha natijador, ta'sirli chora – tadbirlar ko'rib kelinmoqda. Zotan, sof insoniy tabiat shunday bo'lishini taqazo qiladi. Ta'kidlaganimdek, ming afsuslar bo'lsinkim, keyingi paytlarda OAV larda yoshlarni nafaqat yoshlarni balki, ba'zi katta yoshdagi insonlarni ham ongini zaxarlab kelishmoqda. To'g'ri, hamma – ham bir xil emas, hammaning o'z dunyoqarashi har xil bo'ladi. Kimdir OAV laridan to'g'ri maqsadda foydalanadi, yana kimlardir o'zlaning qabih maqsadlari yo'lida foydalanib kelmoqda. Mana shunday g'arazli maqsadlariga erishish yo'lida aynan balog'at yoshiga yetgan farzandlardan, iymoni sust kishilardan foydalanib kelinmoqda. Masalan, OAV larda Yeyropa davlatlarida “ - oilaning keragi yo'q, nikoh shart emas, chunki, insonning erkinligini cheklab qo'yadi”- degan tushunchalarni hamda bir jinsli insonlarni nikohini targ'ib qilib chiqishmoqda. Shunga o'xshash sharqona mintalitetimizga yot bo'lgan jirkanch holatlarni eshitganda odamni larzaga keltiradigan, g'azabni uyg'otadigan hissiyot paydo bo'ladi. Yevropa davlatlarida bu holatlar keng tarqalgan bo'lsada bizning kelajak avlodimiz bo'lgan yoshlarni asrashimiz kerakligi bugungi kundagi dolzarb masalalardan asosiysi hisoblanadi desak xato bo'lmaydi. Yana ming afsuslar bo'lsinkim, farzandlarimiz orasida bunday safsatlarga ishonadiganlari chiqqanligi ayanchli holatdir. Barchaga ma'lumki, 2021 yilning aprel oyida Toshkent shahridagi “Amir Temur” xiyobonida bir qator voyaga yetgan aqli – hushini tanigan o'g'lonlar bir jinsli nikohni targ'ib qilib chiqdilar. Ular shu haqida OAVlardan habardor bo'lib, bizda O'zbekistonda qo'llamoqchi bo'ldilar. Bundan tashqari o'z jinsini o'zgartirib, Alloh in'om etgan ne'matlariga shukrona keltirmasdan erkak jinsini ayol jinsiga, ayol jinsini erkak jinsiga jarrohlik yo'li bilan o'zgartirib yurganlarini misol qilsak bo'ladi. Men shu maqolani yozishga kirishganimda mana shu “trans”lar, ya'ni jinsini o'zgartirib yurganlar haqida ma'lumotlar qidirdim. Nima sababdan shu noto'g'ri yo'lni tanlaganlari haqida chuqur o'yga botdim. Ijtimoiy tarmoqlarda kuzatganimda erkak jinsli inson o'z jinsini ayol jinsiga nima sababdan o'zgartirganligi sababini aytib o'tgan. Uning aytishicha oilada 2 ta qiz, 1 ta og'il farzand bo'lgan ekan. Otasining vafotidan so'ng kasal onasini davolatish uchun, 2 ta opasini boqish uchun ish qidirganligi va ish topaolmaganligini, odamlarning tanqidiga uchraganligini aytib o'tgan edi. U yana ayollarning turmush tarziga qiziqqanligi, hech bo'lmasa bir kun bo'lsa ham ayol bo'lib yashash istagi bor bo'lganligini aytdi. Yana hech uyalmasdan, hijolat ham bo'lmasdan intervyu bermoda. Bir so'z bilan aytganda ma'naviy yetuklikning pastligi desak mubolag'a bo'lmaydi. Diniy tomondan nazar tashlasak. Erkak bo'lib o'zini ayolga o'xshab tutganlarni, ayol bo'lib o'zini erkakka o'xshab tutganlarni dinimizda ham qoralangan. Tibbiyot sohasida ko'radigan bo'lsak, odam organizmida 1 yilda 1 yoshga qarisa ularda esa, 1 yilda 3 yilga qarish holati kuzatilar ekan. Hamma hohlagandek yashash huquqiga ega, o'zi istaganidek umrini o'tkazadi. Lekin, OAV larida bularni targ'ib qilib o'zini ko'z – ko'z qilib



yurishlarini qoralayman. O'sib kelayotgan yosh kelajak avlodlarimiz jamiyatimizda bunday manqurt odamlar biz bilan yonma-yon yashab kelayotganligidan xabardor bo'lishlaridan xavotirdaman. G'arb mamlakatlarning yana bir odati ya'ni bizning yoshlarimiz orasida tug'ilgan kun egasini tuxum va tomat pastasi bilan bejash urfi ommalashganiga yoqangni ushlaysan. Qani tarbiya? Qani ota-ona, nuroniylar, o'qituvchi, yoshlar ishlari agentligi, mahall, ichki ishlar, xotin-qizlar, diniy ulomalarning ta'siri? Ma'naviyat qayerga ketyapti degan savollar kelaveradi.

Insonning ma'naviy va aqliy xislatlarini, asosan, uning olgan tarbiyasi, yashagan muhiti belgilaydi deb hisoblanadi. Agar, yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo'lsa, noto'g'ri tarbiya uning uchun baxtsizlikka, hatto halokatga aylanishi uqtiriladi. SHuning uchun maktab tarbiyasidan ham oldin oila tarbiyasiga katta ahamiyat beriladi. Oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya maktab ta'limi uchun katta madaddir va aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu holda maktabdagi ta'lim-tarbiya ishining samarasi past bo'lib qolaveradi. Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston yoxud axloq» kitobida bunday keltiradi: «Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin, insondagi bu qobiliyatni kamolga etkazish tarbiya bilan bo'lur. Qush uyasida ko'rganini qilar».

*Xudoning rahmatu fayzi hamma insonga yaksardur,
Va lekin tarbiyat birla etushmak sharti akbardur.
Tug'ib tashlov-la bo'lmas bola, bo'lg'ay balo sizg'a,
Vujudi tarbiyat topsa, bo'lur ul rahnamo sizga.
Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo'lur olim,
Buzilsa xulqi, Luqmon o'g'li bo'lsa, bo'lg'usi zolim.
Yomonlarga qo'shildi Nuhning o'g'li, bo'ldi beimon,
YUrudi Kahf iti xo'blar-la bo'ldi oti inson.*

Xulosa: Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinso'zlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir bo'lib, bolani shakllantiradi. SHu jumladan, ta'limni ham g'azab va jazolash bilan amalga oshirmagan ma'qul. Zero, zo'rlab berilgan ta'lim bola xotirasidan tezda o'chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so'nishi mumkin. Bundan ko'rinadiki, ta'limning avvali ham yaxshi tarbiyadan va odobdan boshlanadi.

Misr podshohi Rum sultoni bilan adovat binosini buzib, do'stlik rishtasini bog'ladi va o'z o'g'liga uning qizini nikohlab berdi. Bu ikki davlat sohibi bir-biri bilan do'stlashganidan ikkala mamlakat ham obod va farovon bo'ldi. Bir kuni Misr podshohi Rum shahanshohiga noma yuborib, unda: «Farzandlarimiz hayotimizning asosi va tirikligimizning nishonasidirlar, bizlar vafot etganimizdan keyin nomu nishonimiz hayotda ular orqali yashab qoladi. Men o'g'lim uchun ajoyib, nafis matolar va hisobsiz yaxshi ot, tuya va boshqa hayvonlar, qullar, ko'shk va imoratlar zaxira qilib qo'ydim. Siz farzandingizning kelajagi uchun qanday tadbir ko'rdingiz?», deb so'radi. Rum podshohi maktubni o'qib, tabassum qildi va dediki: «Mol bevafo, yoru dildor bebahodir, uning hisobini qilmoq ne kerak. Bu besh kunlik o'tar dunyoda o'tkinchi matolarga aldanish kerak emas. Men farzandimni adab va tarbiya sarposi bilan orasta qildim, yaxshi sifat va odoblarni uning uchun zaxira qildim. Molga zavol etadi, ammo yaxshi xulq, tarbiya o'zgarmaydi va yo'q bo'lmaydi».

Qissadan hissa shuki, farzanlarimizga mol to'plash orzusi bilan emas, go'zal xulq, ta'lim-tarbiya berish ishtiyoqi bilan yashamog'imiz kerak ekan. SHundagina ular ham istaganimizdek odobli, saodatli, vatanparvar, fidoyi, halol insonlar bo'lib ulg'ayadilar.

Dunyoga kelgan bolaning har bir harakatidan, undagi o'zgarishlardan ota-ona, mahalla ogoh bo'lishi lozim. Farzandning tili yangi chiqqan vaqtda to'g'riso'zlik va shirinsuxanlikka o'rgatilsa, birinchi bor ovqat eganda «Bismilloh», deb, o'ng qo'lda yeyish va ozodalik singdirilsa, birinchi bor mutolaa qilganda foydali kitob tavsiya etilsa, biron-bir illat birinchi bor sodir etilganidayoq qaytarilsa, bu saboqlarga bola umrining oxirigacha amal qilib yashaydi. Ma'naviyat haqida har kim har kuni, har



soniyada hoh yoshi katta bo'lsin, hoh kichik bo'lsin barchaga har doim eslatib turgan yaxshi. SHundagina oilalarimiz tinch bo'ladi. Oila tinch bo'lsa, jamiyat gullab yashnaydi. Bu borada juda ko'plab fikrlar keltirsakda ularning barchasi ummonning bir tomchi suvi bilan barobar deb qiyoslayman. Biz yoshlar ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy qadriyatlarimizni o'zbek degan millatimiz nomiga dog' tushirmasdan sog'lom oilamizni yot g'oyalardan ko'z qorachig'imizdak asrab bizdan keying avlodga nuqsonsiz topshirmog'imiz muhimdir. “-Vatan menga nima berdi emas, men Vatanga nima qildim?”- degan savolni o'zimizga berib oilalar mustahkamligini ta'minlashda o'z hissamizni qo'shmogimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Hilol-Nashr” Toshkent 2019.
2. Imom Buxoriy “Al-adab al-mufrad”
3. Hidoyat.uz-sayti
4. Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” Toshkent “Akademnashr” 2019
5. Oilalar mustahkamligini taminlashdagi muommolar va ularni bartaraf etish yullari Toshkent 2019

